

## **“Kelajak soati” darsining 9-11-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi: 29-mavzu: “Sohibqiron Amir Temur”**

### **Dars maqsadi:**

**Umumiy maqsad:** Ushbu mashg‘ulot davomida 9-11-sinf o‘quvchilarning avvalgi o‘quv yillardagi to‘plagan bilimlarini takrorlash, ayni paytdagi darslik ma’lumotlariga mutanosib ravishda qo‘shimcha ma’lumotlar berish maqsad qilingan. Bilamizki, maktabda turli fanlar orqali ham Temur bobomiz haqida ma’lumot beriladi. Ushbu “Kelajak soati” mashg‘uloti orqali o‘quvchilar egallagan bilimlarning qay darajada o‘zlashtirilganligiga ham ahamiyat qaratiladi. Bundan tashqari buyuk sarkarda haqida qiziqarli ma’lumotlar bilan o‘quvchilarni jalb qilishga harakat qilinadi.

### **Aniq maqsadlar:**

1. O‘quvchilarda Amir Temur haqidagi bilimlarning qay darajada ekanligini aniqlash;
2. Buyuk sarkarda Amir Temur haqidagi o‘quvchilarning fikrlarini bilish va ularning mavzuga tanqidiy yondashuvlarini kuzatish;
3. Tarixiy faktlarni bugungi atrofimizdagi hodisalarga bog‘lab o‘quvchilarda mavzu doirasida kengroq mushohada qilish ko‘nikmasini shakllantirish;
4. O‘quvchilarning mavzuga doir bilimlarini rivojlantirishga erishish va Amir Temur haqida aniq ma’lumotlarni mustahkam o‘zlashtirishlarini ta’minlash.

**Asosiy g‘oyalar:** Amir Temur faoliyati o‘quvchilarga tarixiy bilimlarni shakllantirish va kengaytirish uchun muhim manba hisoblanadi. Shu orqali ular faqat ma’lumot olish bilan cheklanmay, mavjud bilimlarini tahliliy baholash, tarixiy voqealarni qiyoslash va e’tibordan chetda qolgan jihatlarni aniqlash imkoniga ega bo‘ladilar. Zamonaviy ta’lim talablariga ko‘ra, sog‘lom tanqidiy fikrlash va keng dunyoqarashning shakllanishi har bir yosh avlod uchun zarurdir. Shuning uchun o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga va keng fikr yuritishga o‘rgatish, ularni tarixiy shaxslar va hodisalarni chuqurroq tushunishga yo‘naltirish dars jarayonining muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

### **Darsdan keyin kutiladigan natijalar:**

#### ***Aqliy va tushunchaviy darajada:***

1. O‘quvchilar Amir Temurga aloqador mashhur ma’lumotlarni puxta bilib oladi.
2. Amir Temurni nafaqat harbiy siymo, davlat rahbari sifatida taniydi, balki boshqa qirralarini ham yaxshilab o‘zlashtiradi.
3. Amir Temur haqida o‘rganilgan bilimlardan kelib chiqib o‘quvchilarda mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritish ko‘nikmasi shakllanadi.

#### ***Hissiy va qadriy yondashuvda:***

1. Ajdodlarni e'zozlash hissini tarbiyalaydi.
2. Ajdodlarni qadrlash va o'z yaqinlarining hurmatini joyiga qo'yish hissi shakllanadi.
3. Ma'naviy merosga hurmatsizlikdan chekinish adabiy hamda tarixiy merosimizga nisbatan mas'uliyatli munosabat paydo bo'ladi.

***Amaliy ko'nikmalarda:***

1. Olgan bilimlar vositasida kunimizdagi voqelikni tahlil qilishga urinish, sog'lom tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalari shakllanadi.
2. Olgan bilimlarini kreativ ravishda solishtirish va tahlil qilish ko'nikmalari shakllanadi.
3. Olgan bilimlari yuzasidan o'z fikrlarini bildirish, sog'lom bahs yuritish, o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

***4. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:***

1. Jamiyatda Amir Temur haqidagi fikrlarni tahlil qilish ko'nikmasi shakllanadi.
2. Hozirgi kunda Amir Temur hayoti va ijodini o'rganish, keyingi avlodga meros qoldirishga qaratilgan ishlarni tushunish va hissa qo'shish ko'nikmasi shakllanadi.

**Metapredmet:** Bu ta'limda o'quvchilarning faqat bir fan doirasida emas, turli fanlar, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muhitda qo'llay oladigan umumiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir.

Masalan, dars davomida o'quvchilarning tarix, adabiyot, tarbiya kabi fanlardan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalari shakllantiriladi.

**Dars hamkori:** Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.  
<https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

**Dars davomiyligi:** 45 daqiqa.

**Tavsiya etilgan mashg'ulot shakli:** bilim beruvchi suhbat, video parchalar, o'yin elementlari va qo'shimcha materiallardan foydalanish.

**Materiallar to'plami:**

ssenariy;  
uslubiy tavsiyalar;  
videomateriallar;  
interaktiv topshiriqlar;  
taqdimot.

## I. KIRISH. Motivatsion qism (10 daqiqa)

**O‘qituvchi:** Oxirgi paytlarda sizlar podkastlar, intervyular, tarixiy tahlillarni ko‘p eshityapsiz. Shunaqa kontentlarda bir savol tez-tez ko‘tariladi: “Tarixni shaxslar yaratadimi yoki sharoit shakllantiradimi?”

Bugun biz shu masalani bitta aniq tarixiy misol orqali tahlil qilamiz.

Tasavvur qiling: XIV asr. Markaziy Osiyo parokanda. Ichki nizolar, iqtisodiy tanazzul, tartibsizlik avj olgan. Aholi urushlardan bezgan, qashshoqlashgan va alamzada. Shunday sharoitda kuchli davlat qurish qanchalik real vazifa edi? Bunday vaziyatdan chiqish uchun nima qilish kerak edi?

*O‘quvchilar fikri tinglanadi.*

**O‘qituvchi:** Endi savolni chuqurlashtiramiz:

- XIV asr oxirida markazlashgan davlat tuzish nega muhim edi?
- Kuchli davlat boshqaruvi jamiyat taraqqiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
- Tarixiy shaxsning muvaffaqiyati ko‘proq shaxsiy fazilatlariga bog‘liqmi yoki tarixiy sharoitga?

*O‘quvchilar fikri tinglanadi.*

**O‘qituvchi:** Fikrlaringizda jon bor. Aslida tarixni shaxslar yaratadimi yoki sharoit degan mavzuda uzoq bahslashish mumkin. Bugun biz 690 yilligini nishonlash arafasida turgan Amir Temur hayoti va faoliyatini tahlil qilar ekanmiz, ham uning shaxsini, ham sharoitni hisobga olishimiz kerak.

Mavzuga kirishda sizlarga bir video qo‘yib beraman. Bu videoda bugungi kunda mamlakatimizda Amir Temur merosini o‘rganish, saqlash va anglash yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar aks etgan. Ko‘rish davomida quyidagi jihatlariga e’tibor bering:

Bugungi siyosatda Amir Temur merosining qaysi jihatlari dolzarb deb olinmoqda? Tarixiy meros bugungi taraqqiyot bilan qanday bog‘lanmoqda?

### Vizual kontent

**Amir Temur siymosi milliy o‘zlik, g‘urur timsoli!**

[https://t.me/kelajaksoati\\_rasmiy/498](https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/498)

**O‘qituvchi:** Videoda Amir Temur merosining qaysi qirralari alohida ko‘rsatildi? Nima uchun aynan shu jihatlar bugungi islohotlarda muhim deb topilmoqda?

*O‘quvchilar fikri eshitiladi.*

**O‘qituvchi:** Demak, bugun biz Amir Temurni tarixiy qarorlar qabul qilgan, strategiya ishlab chiqqan va tarixga ta’sir ko‘rsatgan real shaxs sifatida o‘rganamiz.

Tarixiy manbalarda Amir Temur “Sohibqiron” unvoni bilan tilga olinadi. “Sohibqiron” atamasi sharqona siyosiy tafakkurda yuksak qudrat va muvaffaqiyat ramzi sifatida qo‘llanilgan.

Bugungi darsimizda biz Sohibqironning siyosiy faoliyati, davlat boshqaruvi tizimi, harbiy yurishlari hamda bunyodkorlik ishlari haqida fikr yuritamiz va uning tarixdagi o‘rnini tahlil qilamiz.

## II. ASOSIY QISM (30 daqiqa)

**O‘qituvchi:** Azizlar, darsimizning kirish qismida aytilganidek, XIV asrda Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlat yo‘q edi, mayda bekliklar va qabilalar o‘zaro urishib, o‘zlarini ham, mamlakatni ham botqoqqa botirmoqda edilar. Mo‘g‘ul bosqinchilarining zulmi bir tomondan, mahalliy hukmdorlarning xudbinligi boshqa tomondan xalqni ezar edi. Aynan shunday paytda tarix sahnasiga Amir Temur chiqadi.

1336-yil 9-aprelda Shahrisabz yaqinida jangchi bahodir oilasida tug‘ilgan bu inson g‘ayrioddiy tafakkurga va jur‘atga ega edi. Yoshligidanoq ziyrak, tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qiladigan bo‘lib o‘sdi. Ya‘ni bolaligidanoq rahbarlikka, boshqaruvga qobiliyati aniq ko‘rinib turar edi.

Katta bo‘lgach, otasi kabi jangchi bo‘lishi tayin edi. Ammo shunchaki qabilalararo urushlarda piyoda yoki otliq askar bo‘lib o‘tib ketishni istamadi. U katta davlat va imperiya qurish, yurtga tinchlik va taraqqiyot olib kelish uchun jangga kirdi.

Amir Temur 1360-1385-yillarda mamlakatda ichki tartibni tikladi. 1370-yilda Samarqandni poytaxt qildi. Keyin esa katta hududlarni birlashtiradi.

Nima deb o‘ylaysiz: bu faqat kuch bilan amalga oshdimi? Albatta unday emas. Amir Temur o‘z maqsadiga strategiya, aql va uzoqni ko‘ra olish orqali erishdi.

Shu sababli Amir Temur shunchaki jangchi emas, davlat quruvchi, imperiya yaratuvchi sifatida tarixda qoldi.

*O‘qituvchi doskaga yozadi:* **Amir Temur – bunyodkor**

**O‘qituvchi:** Nima deb o‘ylaysiz, Amir Temur umrining katta qismini urushlarda o‘tkazganmi yoki bunyodkorlik bilanmi?

*O‘quvchilar turli javob beradi.*

**O‘qituvchi:** Amir Temur aslida bunyodkor hukmdor edi.

U har bir shaharda masjid, madrasa, shifoxona, karvonsaroylar qurilishi haqida buyruq bergan. Bu orqali nafaqat shaharlar kengaygan, balki me‘morchilik san‘ati ham rivojlangan. Shaharlarning hokimlari bunyodkorlikda o‘zaro bellasha boshlaganlar. Natijada temuriylar davri me‘morchiligi degan fenomen paydo bo‘ldi, ya‘ni me‘morchiligimizda favqulodda jadal rivojlanish kuzatildi, durdona obidalar qad ko‘tardi.

Samarqand dunyoning eng chiroyli shaharlaridan biriga aylandi. Atrofida Damashq, Bag‘dod, Misr nomlari bilan qishloqlar barpo qilindi.

Bu nimani anglatadi?

*O‘quvchilar fikr bildiradi.*

**O‘qituvchi:** Bu tamomila yangi tafakkur darajasi edi. Amir Temur shunchaki binolar yoki shahar qurish bilan cheklanmadi. U sivilizatsiya yaratdi.

Keling, hozir Amir Temur bunyodkorligining noyob va buyuk namunasi bo‘lgan Oqsaroy obidasi orqali uning sivilizatsiyasiga nazar tashlaymiz. Monitorga qaraymiz.

## **Vizual kontent**

### **Oqsaroy haqida 10 ma’lumot**

<https://youtu.be/clDuOYP8JSc>

**O‘qituvchi:** Amir Temur va uning davomchilari bo‘lmish temuriylar o‘z davrida katta qurilish ishlarini olib borganlar. Ular poytaxt va shaharlarda hunarmandlar-u naqqoshlar hamda musavvirlar asarlari bilan bezatilgan madrasalar, masjidlar, maqbaralar, qasrlar, saroy va chorbog‘lar, hammomlar bunyod ettirishgan.

Samarqandda Amir Temur tomonidan solingan bog‘lar shunday maskan ediki, Eram gulistoni rashk qilar darajaga keltirib qo‘yilgandi. Amir Temur nafaqat Movarounnahr hududida, balki nazorati ostidagi boshqa mamlakat va shaharlarda ham yangidan yangi maskanlar va inshootlar bunyod ettirgan.

Bu haqida Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”sida shunday bayon qilinadi: “Amir Sohibqironning oliy himmati jahon ahli ahvolining osoyishtaligiga qaratilganligi va shunga sarflanayotganligi tufayli Ravshan qalbi oynasida shu narsa yuz ko‘rsatdiki, Turon mamlakatida mashhur mavzelarni imorat qilganimiz kabi Eron mamlakatida ham biz hazratdan yodgorlik qolgay”.

Fransuz tarixchisi Jan Pol Ru esa shunday fakt keltiradi: “Amir Temur hatto boshqa din vakillarining ibodatxonalari va muqaddas joylarini ham ta’miratgan”. Bu buyuk bobomizning bag‘rikengligi va insonparvarligini ko‘rsatadi.

Akademik Bartold esa Temur va temuriylar davri bunyodkorligiga “eng go‘zal me’morchilik davri” deya ta’rif beradi.

Ko‘rinadiki, Amir Temur oddiy hukmdor emas, balki o‘z nomi bilan ataluvchi davrni yaratgan shaxs bo‘lgan.

Shu o‘rinda temurshunos olim Sanjar G‘ulomovdan Amir Temurning tarixdagi o‘rni haqida eshitamiz. Video tomosha qilamiz.

## Vizual kontent

“Amir Temurdan bizga nimalar qoldi?” – temurshunos olim mulohazalari

<https://youtu.be/ePvMOCTTAnU>

*O‘qituvchi doskaga yozadi:* **Davlat boshqaruvi – Temurning eng kuchli tomoni.**

**O‘qituvchi:** Davlatni nima ushlab turadi? Albatta, tartib, qonun va tizim.

Amir Temur davlatni boshqarishda yangi tizim yaratdi. Ya’ni Qurultoy (kengash) tashkil qiladi. Vazirliklar tizimini yo‘lga qo‘yadi. 8 ta asosiy boshqaruv yo‘nalishini belgilaydi. Hatto harbiylarga maosh, yaradorlarga nafaqa tizimini ham joriy qiladi.

Bu bugungi davlat qurilishiga juda yaqin tizimdir.

Demak, xulosa qilish mumkinki, Amir Temur kelajakni oldindan bila olgan. Albatta, u folbin yo bashoratchi emasdi. U tajribali hukmdor va bo‘layotgan jarayonlarning oqibat va natijasini fahmlay oladigan siyosiy farosatli odam bo‘lgan.

*O‘qituvchi doskaga yozadi:* **“Temur tuzuklari” – qoidalar kitobi.**

**O‘qituvchi:** Endi Amir Temurga oid eng muhim manba haqida gaplashamiz.

Ko‘pincha Amir Temur haqida gap ketganida, “Temur tuzuklari” tilga olinadi. Kim biladi, “Temur tuzuklari” nima?

*O‘quvchilar javob beradi.*

**O‘qituvchi:** Bu shunchaki kitob emas. Bu davlatni qanday boshqarish kerakligi haqidagi qo‘llanma.

Unda qonun ustuvorligi, intizom, adolat, kengashib-maslahatlashib qaror qabul qilish kabi tamoyillar yozilgan.

Ushbu manba bugungi kun uchun qanday ahamiyatga ega?

*O‘quvchilar fikr bildiradi.*

### **Amir Temur – ilm homiysi**

**O‘qituvchi:** Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki ilm-fan rivojiga katta e’tibor bergan davlat arbobi ham bo‘lgan. Uning siyosatida kuch faqat qilich bilan emas, ilm bilan ham mustahkamlanishi kerak degan qarash ustuvor edi. Shu bois Temuriylar saroyida ilm ahli: astronomlar, tarixchilar, shoirlar, faylasuflar doimo e’zozlangan. Bu bejiz emas, chunki ilmga yaratilgan sharoit natija beradi. Aynan temuriylar davrida Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi, Xondamir, Husayn Boyqaro, Gulbadanbegim, Zebuniso kabi shaxslar yetishib chiqqani shu ilmiy muhit sabablidir.

Amir Temurning taraqqiyparvarligi yana shunda ko‘rinadiki, uning ilm-fanga va kelajakdagi taraqqiyotga ahamiyat berishi ortidan oqila temuriy malikalar ham

yetishib chiqdi. Ular salohiyatli, bilimli shahzodalarni tarbiyalab berish bilan birga ayrimlari davlat ishlarida ishtirok etdilar, asarlar yozdilar, tarixda iste'dodli shaxs sifatida nom qoldirdilar. Hozir ular haqida ma'lumot beruvchi kontent tomosha qilamiz.

## **Vizual kontent**

### **Temuriy malikalar**

[https://youtu.be/QS\\_morfjVk?si=yi7T7zamlO7QOgum](https://youtu.be/QS_morfjVk?si=yi7T7zamlO7QOgum)

**O'qituvchi:** Videoda Gavharshod Begim haqida ham so'z bordi. Sizlar uning o'g'li Mirzo Ulug'bek haqida nimalarni bilasiz?

**O'quvchilar:** Astronom bo'lgan, yulduzlar jadvalini tuzgan, rasadxona qurgan.

**O'qituvchi:** To'g'ri, lekin bu oddiy rasadxona emas edi. U davr uchun dunyodagi eng ilg'or ilmiy markazlardan biri edi. Ulug'bek 1018 ta yulduz koordinatalarini aniqlab, "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asarini yaratdi. Bu kitob yuzlab yillar davomida Yevropada ham asosiy astronomik manba sifatida foydalanilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, ilmga berilgan e'tibor nafaqat ichki rivojlanish, balki butun dunyoga ta'sir ko'rsatadigan natijalarni beradi.

Endi o'ylab ko'ring, nega kuchli davlatlar har doim ilmga sarmoya kiritadi? Chunki qurol bugunni himoya qiladi, ilm esa ertangi kunni boshqaradi.

### **Temur va temuriylar davrida adabiyot va madaniyat**

**O'qituvchi:** Temuriylar davrida yana bir muhim soha gullab-yashnagan. Bu – madaniyat va adabiyot. Shu davrda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Bobur kabi buyuk allomalar yashab ijod qilgan.

Qolaversa, Lutfiy she'riyati, allomalar Qozizoda Rumiyning ilmiy asarlari, Kamoliddin Behzodning durdona miniatyura rasmlari, G'iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, Muiniddin Natanziy, Hafizi Abro', Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxondlarning solnomalari – barcha-barchasi temuriylar davrining mahsulidir.

Bu shuni ko'rsatadiki, buyuk shaxslar tasodifan paydo bo'lmaydi. Avval ularni shakllantiradigan muhit yaratish lozim. Agar jamiyatda ilm qadrlansa, san'at qo'llab-quvvatlansa, fikr erkin bo'lsa, natijada ana shunday ulug' siymolar yetishib chiqadi.

### **Diplomatiya – Temurning dunyoga ta'siri**

**O'qituvchi:** Endi yana bir muhim jihatga e'tibor qaratamiz. Sizningcha, Amir Temur siyosati faqat o'z qo'l ostidagi mamlakat bilan cheklanganmi? Albatta, unday emas. U faqat jang maydonida emas, xalqaro maydonda ham uzoqni ko'ra olgan. Amir Temur ispan, fransuz, ingliz hukmdorlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan, elchilar yuborgan, maktublar almashgan. Bu Sohibqironning global fikrlash darajasi

va siyosatdonligi natijasi edi. U Yevropa va Osiyo o'rtasida ko'prik vazifasini bajargan. Bu esa strategik fikrlash, dunyoni tushunish, manfaatlarni muvozanatlashtirish degani.

Endi o'ylab ko'ring, nega bugungi kunda ham davlatlar diplomatiyaga katta e'tibor beradi? Chunki zamonaviy dunyoda kuch faqat harbiy qudrat bilan emas, balki muzokara, ittifoq va muloqot orqali ham belgilanadi.

Amir Temur bobomiz obraziga jahon va milliy san'atimizda ko'p murojaat qilingan, chunki u dunyoga eng mashhur tarixiy shaxslardan. Hozir hammangizga ma'lum asar – Abdulla Oripovning “Sohibqiron” she'riy dramasidan bir parchani qo'yib beraman. Monitorga diqqat qiling – Amir Temur shatranj o'ynamoqda.

### **Vizual kontent**

#### **“Dunyo – shatranj taxtasi”**

<https://youtu.be/QHxe577PKj8?si=Ktqj-J53CrPWv0hV>

*O'qituvchi doskaga yozadi:*

**DAVLAT,**

**ADOLAT,**

**ILM,**

**BUNYODKORLIK,**

**DIPLOMATIYA**

**O'qituvchi:** Mana shu beshta tushuncha Amir Temurning haqiqiy tarixiy portretini yaratadi. U faqat zabt etgan hududlari bilan emas, balki qurib ketgan tizimi, yaratgan ilmiy va ijodiy muhiti hamda qoldirgan merosi bilan buyukdir.

Endi esa eng muhim savolni o'zingizga bering: sizda shu jihatlarning qaysi biri bor? Qaysi jihatni rivojlantirish orqali siz ham kelajakda o'z yo'lingizni yarata olasiz?

Hozir Amir Temur va unga oid ma'lumotlarni qay darajada o'zlashtirganingizni tekshiramiz. Marhamat, ekranga qaraymiz va savollarga “to'g'ri” yoki “noto'g'ri” deb javob beramiz.

### **Vizual kontent**

#### **“Amir Temur nomida...” – Bilimingizni sinab ko'ring!**

<https://youtu.be/FoD3fN2a5Tk>

### **III. YAKUNIY QISM (5 daqiqa)**

**O'qituvchi:** Aziz o'quvchilar, yakunda darsimiz boshidagi savolga qaytamiz: tarixni kim yaratadi – sharoitmi yoki shaxs? XIV asrning parokandaligi, urushlari va tanazzuli – bu faqat og'ir fon edi. Aynan shu sharoit ichidan Amir Temur kabi shaxs

chiqib, tartibsizlikni tartibga, parokandalikni kuchli davlatga aylantira oldi. Demak, sharoit sinov yaratadi, lekin tarixni jasorat, aql va iroda egasi bo'lgan inson o'zgartiradi. Amir Temur bunga eng yorqin misol: u sharoit qurboni bo'lmadi, aksincha, uni boshqarib, yangi tarix yaratdi.

Bugun biz Amir Temur siymosining turli qirralarini ochishga harakat qildik. Biz uni faqat jang maydonidagi sarkarda sifatida emas, balki saltanat qurgan va uni mustahkamlay olgan, adolatni qadrlagan, ilm-fanga yo'l ochgan, bunyodkorlikni qo'llab-quvvatlagan va uzoqni ko'ra olgan buyuk shaxs sifatida anglashga harakat qildik. Shu jihatdan Amir Temur haqida gapirganda, biz kuchli shaxs qanday bo'lishi kerakligi haqida xulosalar qilamiz.

Tarixda nom qoldirgan insonlarning barchasini birlashtiradigan bitta jihat bor: ular zamonidan nolimagan, mas'uliyatdan qochmagan, o'z oldiga katta talab qo'ya olgan. Amir Temur ham aynan shunday inson bo'lgan. U sharoitni bahona qilmagan, aksincha, murakkab vaziyatda mamlakat ichida tartib yaratgan, parokandalikni yo'qotib xalqni birlashtirgan, zaiflik o'rniga kuch, befarqlik o'rniga maqsad qo'ya olgan.

Buyuklik birdan paydo bo'lmaydi. U insonning ichida avval fikr bo'lib tug'iladi, keyin niyatga aylanadi, undan so'ng intizom, mehnat va sabr bilan mustahkamlanadi. Demak, katta tarix ham aslida kichik, ammo to'g'ri qadamlar bilan boshlanadi.

Siz Amir Temurdek saltanat qurmasligingiz mumkin, lekin siz ham bugundan boshlab o'z kelajagingizni qura olasiz. Sizning so'zingizdagi qat'iyat, bilimingizga bo'lgan munosabatingiz, vaqtingizni qadrlashingiz, ota-onaga hurmatingiz, Vatanga foydali inson bo'lish istagingiz – mana shu narsalar kelajak poydevoridir. Katta insonlar avval ichidan ulg'ayadi, keyin real hayotda yuksaladi.

Shuning uchun bugungi darsdan Amir Temurning tarjimai holini o'rganib emas, uning hayot sabog'ini va muvaffaqiyati sirini bilib chiqishimiz kerak. Saboq shuki, kuch faqat jismoniy qudratgina emas, kuch – bu iroda.

Balki oramizda bo'lajak olimlar, yurtga xizmat qiladigan, adolatni himoya qiladigan, yangi g'oyalar yaratadigan yoshlar o'tirgandir. Lekin buning boshlanish nuqtasi aynan bugun – sizning qalbingizda, fikringizda, niyatingizda. Agar bugun o'zingizga talabni oshirsangiz, ertaga hayot sizni boshqacha siylaydi. Amir Temurga qarab faqat qoyil qolish bilan kifoyalanmay, undan o'rnak olib, o'z oldimizga balandroq maqsadlar qo'ya olishimiz kerak.

Shu bilan bugungi darsimiz nihoyasiga yetdi. Xayr, ko'rishguncha.